

O‘zbekiston Respublikasi
Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligi
2024-2025 o‘quv yili
I-chorak
choraklik summativ baholash
test savollari.
6-sinf
2-variant

1-25 matematika, 26-45 ona tili va adabiyoti.
 (B-bilish; Q-qo‘llash; M-mulohaza ga oid test savollari)

O‘quvchi (F.I.SH).....

1. (B 1,3 ball) Juft va toq sonlar uchun quyidagi mulohazalarni to‘g‘ri yoki noto‘g‘ri ekanligini aniqlang.

No	Mulohazalar	to‘g‘ri	noto‘g‘ri
1	Toq son bilan juft son yig‘indisi juft son bo‘ladi		
2	Toq son bilan juft son ko‘paytmasi toq son bo‘ladi		
3	Ikkita juft va bitta toq son yig‘indisi juft son bo‘ladi		

- A) to‘g‘ri, noto‘g‘ri, noto‘g‘ri B) noto‘g‘ri, noto‘g‘ri, noto‘g‘ri
 C) to‘g‘ri, to‘g‘ri, to‘g‘ri D) noto‘g‘ri, to‘g‘ri, noto‘g‘ri

2. (B 1,3 ball) 10 va 50 ning orasidagi eng katta va eng kichik tub sonlar yig‘indisini toping.

- A) 60 B) 68 C) 56 D) 58

3. (B 1,3 ball) Quyidagi kasrlardan nechitasi $\frac{18}{42}$ ga teng:

$$\frac{9}{49}; \frac{3}{7}; \frac{9}{21}; \frac{15}{35}; \frac{24}{48}$$

- A) 3 ta B) 2 ta C) 4 ta D) 1 ta

4. (B 1,3 ball) O‘zaro teskari bo‘lgan sonlar juftligini toping va mos keltiring.

1. $\frac{14}{22}$	A. $\frac{5}{9}$
2. $1\frac{4}{5}$	B. $\frac{7}{3}$
3. $\frac{3}{7}$	C. $1\frac{4}{7}$
	D. $\frac{7}{11}$

- A) 1 – D; 2 – B; 3 – A. B) 1 – C; 2 – A; 3 – B.
 C) 1 – C; 2 – D; 3 – B. D) 1 – D; 2 – A; 3 – C.


5. (Q 1,6 ball) Ushbu $11 * + 341$ yig'indi 2 ga bo'linishi uchun yulduzcha (*) o'rniga qo'yish mumkin bo'lgan raqamlar yig'indisini toping.

- A) 23 B) 19 C) 25 D) 20

6. (Q 1,6 ball) 2 ga bo'linadigan lekin 4 ga bo'linmaydigan dastlabki 5 ta ikki xonali sonlar yig'indisini toping.

- A) 90 B) 84 C) 88 D) 76

7. (Q 1,6 ball) Quyidagi ko'paytuvchilar daraxtini to'ldiring va aylanalarga to'g'ri keladigan sonlar yig'indisini toping.



- A) 14 B) 7 C) 15 D) 19

8. (Q 1,6 ball) 6 sinfda 48 ta o'g'il bola va 36 ta qiz bola o'qiydi. Bu o'quvchilardan bir xil tarkibli (qizlar soni ham teng, o'g'il bolalar soni ham teng) guruhlar tuzildi. Har bir guruhdagi qiz bolalar soni eng kami bilan nechta bo'lishini toping.

- A) 6 B) 4 C) 3 D) 12

9. (Q 1,6 ball) 54, 81 va 90 sonlarining EKUKini toping.

- A) 540 B) 810 C) 270 D) 720

10. (Q 1,6 ball) Tenglamani yeching.

$$\frac{6}{11} = \frac{12}{x+8}$$

- A) 9 B) 16 C) 18 D) 14

11. (Q 1,6 ball) $\frac{7}{12}$ va $\frac{3}{5}$ sonlar orasida maxraji 60 ga teng bo'lgan nechta kasr bor?

- A) 2 ta B) 1 ta C) kasr yo'q D) 3 ta

12. (Q 1,6 ball) Kasrlarni qisqartiring, so'ngra umumiy maxrajga keltiring.

$$\left(\frac{9}{24}; \frac{15}{21}\right)$$

- A) $\left(\frac{21}{56}; \frac{40}{56}\right)$ B) $\left(\frac{20}{56}; \frac{40}{56}\right)$ C) $\left(\frac{21}{56}; \frac{42}{56}\right)$ D) $\left(\frac{20}{56}; \frac{42}{56}\right)$

13. (Q 1,6 ball) Berilgan sonlarni o'sish tartibida joylashtiring:

$$a = \frac{9}{10}; \quad b = \frac{4}{5}; \quad c = \frac{3}{4}; \quad d = \frac{39}{40}$$

- A) $b < c < a < d$ B) $d < a < b < c$
 C) $c < b < d < a$ D) $c < b < a < d$

14. (Q 1,6 ball) A ning qiymatini toping.

$$\frac{2}{4} + \frac{7}{12} - \frac{A}{60} = \frac{5}{6}$$

- A) 15 B) $\frac{1}{15}$ C) 3 D) 5

15. (Q 1,6 ball) Uchburchakning tomonlari $\frac{13}{16}$ m, $\frac{28}{32}$ m va $\frac{45}{48}$ m ga teng. Shu uchburchak perimetrini toping.

- A) $2\frac{5}{8}$ m B) $2\frac{7}{8}$ m C) $2\frac{7}{10}$ m D) $1\frac{3}{8}$ m

16. (Q 1,6 ball) Tenglamani yeching:

$$\left(x - 2\frac{17}{21}\right) - 1\frac{6}{7} = 3\frac{18}{42}$$

- A) $8\frac{2}{21}$ B) $8\frac{4}{21}$ C) $7\frac{4}{21}$ D) $9\frac{4}{42}$

17. (Q 1,6 ball) Hisoblang:

$$\frac{34}{63} \times \frac{3}{4} \times \frac{5}{17}$$

- A) $\frac{7}{42}$ B) $\frac{11}{42}$ C) $\frac{5}{42}$ D) $\frac{9}{21}$

18. (Q 1,6 ball) Hisoblang:

$$7\frac{3}{11} \times 1\frac{6}{16}$$

- A) 1 B) 10 C) $\frac{1}{10}$ D) 18

19. (Q 1,6 ball) Avtomobil 72 km/h tezlik bilan 3 soat-u 10 minut, 64 km/h tezlik bilan 3 soat-u 45 minut yo'l yurdi. Avtomobil jami necha km yo'l yurgan?

- A) 448 km B) 468 km C) 472 km D) 416 km

20. (Q 1,6 ball) Uchburchakning perimetri 168 cm ga teng. Uning bir tomoni perimetrning $\frac{1}{4}$ qismiga, ikkinchi tomoni $\frac{1}{3}$ qismiga teng bo'lsa, uchburchakning uchinchi tomoni uzunligini toping.

- A) 82 cm B) 66 cm C) 70 cm D) 64 cm

21. (Q 1,6 ball) Buyumning narxi 48000 so'm edi. Buyum bu narxning avval $\frac{1}{6}$ qismiga arzonlashdi. Keyin yangi narxining $\frac{2}{5}$ qismiga qimmatlashdi. Ma'lum vaqtdan so'ng buyum oxirgi narxning $\frac{1}{8}$ qismiga arzonlashdi. Nodirning 50000 so'm puli bor. Uning puli bu buyumni sotib olish uchun yetadimi?

- A) ha yetadi, 1000 so'm ortib qoladi;
B) ha yetadi, 600 so'm ortib qoladi;
C) yo'q yetmaydi, 2000 so'm kerak bo'ladi;
D) yo'q yetmaydi, 1000 so'm kerak bo'ladi;

22. (Q 1,6ball) Ifodaning qiymatini $a = 45$ bo'lganda hisoblang:

$$3\frac{8}{15} \times a - 2\frac{2}{5} \times a + \frac{14}{15}a$$

- A) $\frac{1}{63}$ B) 93 C) 31 D) $\frac{2}{63}$

23. (M 2 ball) Agar $EKUB(a, b) = 36$ va $EKUK(a, b) = 540$ bo'lib, a va b sonlari bir-biriga bo'linmasa, $a + b$ ni toping.

- A) 288 B) 318 C) 648 D) 360

24. (M 2 ball) Hisoblang:

$$\frac{1}{30} + \frac{1}{42} + \frac{1}{56} + \frac{1}{72} + \dots + \frac{1}{306}$$

- A) $\frac{13}{90}$ B) $\frac{7}{90}$ C) $\frac{11}{90}$ D) $1\frac{1}{90}$

25. (M 2 ball) Bo'sh hovuz birinchi quvur orqali 12 soatda, ikkinchi quvur orqali 18 soatda to'ladir. Ikkala quvur bir vaqtda ochilsa, birgalikda bo'sh hovuzni necha soatda to'ldiradi?

- A) $7\frac{1}{5}$ soatda B) $7\frac{2}{5}$ soatda C) $7\frac{3}{5}$ soatda D) $7\frac{1}{3}$ soatda

26. (B – 2,5) Familiya, ism va ota ism; tug'ilgan yil, kun va oy; millat va ijtimoiy kelib chiqish (h.k.) kabi ma'lumotlar qaysi hujjat turida aks ettiriladi?

- A) ariza
B) tarjimayi hol
C) tushuntirish xati
D) tavsiyanoma

27. (B – 2,5) To'g'ri yozilgan so'zlar qatorini aniqlang.

- A) oylaviy, muxit, xat boshi
B) xatboshi, tarjimayi hol, muhit
C) ona-tili, tarjimai xol, qavis
D) oilaviy, xamsuhbat, tug'ulmoq

28. (B – 2,5) To'g'ri yozilgan so'zlar qatorini aniqlang.

- A) nevrapatolog, tashhis, akulist
B) kardiyolog, valibol, shahmat
C) tenis, basketbol, tashxis
D) futbol, xokkey, xirurg

29. (Q – 4,5) Ushbu gapdan ot so'z turkumidagi so'zlarga oid to'g'ri javobni aniqlang.
– Alisher, to'xta! – degancha qo'lqoplarini yechib do'stining ortidan yugurdi.

- A) gapda atoqli hamda tuzilishiga ko'ra juft bo'lgan turdosh ot mavjud
B) gapda atoqli ot hamda tuzilishiga ko'ra takroriy bo'lgan turdosh ot mavjud
C) gapda tuzilishiga ko'ra qo'shma bo'lgan ikkita atoqli ot mavjud
D) gapda atoqli ot hamda tuzilishiga ko'ra qo'shma bo'lgan turdosh ot mavjud

30. (Q – 4,5) Olmosh so'z turkumiga oid so'zlar keltirilgan qatorni aniqlang.

– Qo'lqoplar ham senga, o'zingni ehtiyot qil! – qo'l silkidi Alisher. Bilol qo'lqoplarni mahkam quchgancha mashina ortidan qarab qoldi...

- A) ham, quchgancha
B) senga, ortidan
C) senga, o'zingni
D) ham, o'zingni

31. (Q – 4,5) Daraja ko'rsata olMAYdigan sifatlar berilgan qatorni aniqlang.

- A) hajmli, g'ishtin, o'ydirma
B) qisqa, salohiyatli, mazali
C) kechki, balandparvoz, o'tkir
D) bosiq, sermahsul, yuqori

32. (Q – 4,5) Matndan undalma va unga tegishli (tushirib qoldirilgan) tinish belgilar to‘g‘ri keltirilgan qatorni aniqlang.

– Menga esa Qor malikasining muz saroyi yoqadi. Hayron bo‘lmang do‘stim, chunki qorni faqat ekranda tomosha qilganman-da. Bizning iqlimimiz issiqligi uchun kamdan kam qor yog‘adi, – dedi Bilol.

- A) undalma – do‘stim; tinish belgisi – vergul
- B) undalmalar – hayron bo‘lmang, do‘stim; tinish belgilar – vergul, vergul
- C) undalmalar – Bilol, hayron bo‘lmang; tinish belgilar – vergul, tire
- D) undalma – Bilol; tinish belgisi – tire

33. (Q – 4,5) Gapdagi olmoshlarning qaysi so‘zlar o‘rnida qo‘llanganini aniqlang.

Alisher Afrika va unda yashaydigan jonivorlar haqida ko‘p o‘qigan bo‘lsa-da, ularni ko‘rishning zavqi boshqacha edi.

- A) Alisher, o‘qigan bo‘lsa-da
- B) Alisher, kitoblar
- C) Afrika, jonivorlar
- D) Afrika, o‘qigan bo‘lsa-da

34. (Q – 4,5) Parchada qo‘llangan son so‘z turkumiga oid to‘g‘ri fikrlarni belgilang.

– Havo harorati noldan past bo‘lganida bulutlardan muz kristallari yog‘adi. Kristallar olti qirrali bo‘lib, birining shakli ikkinchisini takrorlamaydi.

- A) matndagi sonlar sonning ma‘no turiga ko‘ra bir guruhga mansub.
- B) matnda nol, olti, biri, ikkinchi kabi son turkumiga oid so‘zlar qo‘llangan.
- C) matndagi sonlar faqat fe‘l turkumidagi so‘zlar bilan birga qo‘llangan.
- D) matnda qo‘llangan olti va ikkinchi so‘zlarigina son turkumiga mansub.

35. (M – 5,5) O‘zaro bog‘liq matnlarni ajrating.

1. Ishlab chiqarish rivojlangani sari ona tabiat ozor chekyapti. Chunki zavodlar va mashinalardan chiqayotgan zaharli gazlar havoning zaharlanishiga sabab bo‘lmoqda.

2. So‘nggi vaqtlarga qadar olimlar iqlim o‘zgarishi va migratsiya o‘rtasidagi sabab-oqibat bog‘liqliklarini o‘rganishga jiddiy e‘tibor qaratmay kelayotgan edi. Gap shundaki, bir omil boshqasining yuzaga kelishiga sabab bo‘layotganini isbotlash uchun o‘ta qat‘iy va jiddiy ilmiy dalillar talab etiladi.

3. Yaxshi hamki, oramizda ona tabiatga befarq bo‘lmagan ajoyib insonlar bor. Ular o‘zlarining sa‘y-harakatlari bilan butun insoniyatni befarq bo‘lmaslikka undayapti.

4. Hozir sizga bir maqsad yo‘lida birlashgan turli xalq vakillarining harakatlari haqida aytib beraman.

5. So‘ng qochoqlarning asl vatanida ro‘y bergan iqlim o‘zgarishining dinamik jadvali tuzildi. Iqlim o‘zgarishining asosiy ko‘rsatkichi sifatida yog‘ingarchilik miqdorining tushib ketishi va parlanish hajmi olindi.

- A) 3-, 5-matnlar o‘zaro; 1-, 2- va 4-matnlar o‘zaro bog‘liq
- B) 1-, 2-, 4-matnlar o‘zaro; 3- va 5-matnlar o‘zaro bog‘liq
- C) 2-, 4-matnlar o‘zaro; 1-, 3- va 5-matnlar o‘zaro bog‘liq
- D) 1-, 3-, 4-matnlar o‘zaro; 2- va 5-matnlar o‘zaro bog‘liq

36. (B – 2,5) Keltirilgan ma'lumotlar orasidan O'tkir Hoshimovga tegishlilarini aniqlang

1. O'z tarjimayi holida onasi nihoyatda farishtali, diyonatli ayol bo'lgani uchun mahalla-ko'ya, odamlar o'rtasida "Poshsha oyi" degan nom bilan shuhrat topganligi haqida aytgan.

2. Muallif o'z asari haqida "Bu qissa katta-kichik hikoyalardan iborat. Biroq ularning barchasida eng aziz odam – onam siymosi bor. Bundagi odamlarning hammasini o'z ko'zim bilan ko'rganman. Faqat ba'zilarining ismi o'zgardi, xolos. Bu odamlarning qismati ham qaysidir jihatdan onamga bog'langan" degan.

3. "Yulduzlar to'la osmonga tikilaman. Ehtimol, osmondagi eng yorug' yulduzlar onalarning jonidir. Ehtimol, onalarning so'ngan yulduzlari birlashib quyoshga aylangandir. Oftobni ona deyishlari, ehtimol, shundandir" kabi bebaho fikrlar O'tkir Hoshimovga tegishli.

4. "Endilikda boloxonaga hech kim kirolmas, faqat men goho-goho tuynukdan tushib, qoplardagi kitoblarni, ayniqsa sersurat, qalin kitoblarni tuynuk shu'lasiga solib, tomosha qilib o'tirishni yoqtirardim". Ushbu parcha O'tkir Hoshimovning "Muzqaymoq hikoyasidan keltirilgan.

A) 2, 3, 4

B) 1, 2, 3, 4

C) 1, 2, 3

D) Faqat 3

37. (B – 2,5) "Kuz kirganini qishloq bolasining qo'lidan bilsa bo'ladi. Yong'oq hali "paqqa" bo'lib ajralmasdan turib, daraxtga tarmashib ketamiz. Xom yong'oqning po'stini tozalash oson emas" deb boshlangan hikoya haqidagi to'g'ri ma'lumotni aniqlang.

A) Ushbu parcha O'tkir Hoshimovning "Eng og'ir gunoh" hikoyasidan keltirilgan

B) Ushbu parcha Odil Yoqubovning "Muzqaymoq" hikoyasidan keltirilgan

C) Ushbu parcha Odil Yoqubovning "Yaxshilik" hikoyasidan keltirilgan

D) Ushbu parcha O'tkir Hoshimovning "Urushning so'nggi qurboni" hikoyasidan keltirilgan.

38. (B – 2,5) Ushbu tarjimayi hol qaysi ijodkorga tegishli.

"O'qishni tashlab, qo'lga ketmon olishga to'g'ri keldi. Ko'klamda dashtga chiqib yer haydadik, yozda suvchilik qildik, o'roq o'rdik, yalangoyoq tikan kechib, "eshak karvon"larda front uchun g'alla tashidik. Bu ham yetmagandek, urush cho'zilib, mash'um qoraxatlar kela boshlaganida ayollarning, yosh-yosh kelinchaklarning osmon-u falakni zir titratuvchi faryodlarini eshitib, qon qaqshadik, ular chekkan iztiroblarning guvohi bo'ldik".

A) G'ofur G'ulom tarjimayi holi bo'lib, xuddi shu voqealar "Mening o'g'rigina bolam" hikoyasida ham tasvirlangan.

B) G'ofur G'ulom tarjimayi holi bo'lib, xuddi shu voqealar "Sum bola" qissasida ham tasvirlangan.

C) Abdulla Qahhor tarjimayi holi bo'lib, xuddi shu voqealarni "O'tmishdan ertaklar" qissasida ham yoritib bergan.

D) Odil Yoqubov tarjimayi holi bo'lib, shu kabi voqealarni "Yaxshilik" hikoyasida ham yoritib bergan.

39. (Q – 4,5) “Yomg‘ir yog‘ayotganda odam qattiq uxlaydi, deganlari rost ekanmi, Halima opa bugun o‘g‘li Erkinjonni uyg‘otaverib charchab ketdi. Oxiri Erkinjon onasining qistovi kor qilib zo‘rg‘a ko‘zini ochdi. O‘shshayib o‘rnidan turdi. Norozi bir kayfiyatda to‘ng‘illab, hali to‘la-to‘kis uyg‘onmay, karaxtligicha, gandraklab vannaga yo‘l oldi...” Ushbu parchada muallif voqeani nechanchi shaxs nomidan bayon qilgan?

- A) Voqealar ikkinchi shaxs nomidan bayon qilingan.
- B) Voqealar bevosita ishtirokchi tilidan, ya‘ni birinchi shaxs nomidan aytib berilgan.
- C) Ba‘zi o‘rinlarda uchinchi shaxs nomidan, ba‘zi o‘rinlarda esa birinchi shaxs nomidan bayon etilgan.
- D) Voqealar uchinchi shaxs nomidan, xuddi chetdan kuzatayotgan begona tomonidan aytib berilgan.

40. (Q – 4,5) “Boy ortiq chidab turolmadi. Hushidan ketib yiqildi. Men ham qamchi o‘rimidan yeydigan kaltakni nasiya qilib jo‘nab qoldim. Mendan biror soatlardan keyin tulpor saman otda barlari osilib ketgan, alpang-talpan, bir ko‘zi yerda, bir ko‘zi osmonda, egar qoshiga qamchi dastani tirab, yig‘lab boy kelib qoldi”

Ushbu parchada muallif voqeani nechanchi shaxs nomidan bayon qilgan?

- A) Voqealar bevosita ishtirokchi tilidan, ya‘ni birinchi shaxs nomidan aytib berilgan.
- B) Voqealar uchinchi shaxs nomidan, xuddi chetdan kuzatayotgan begona tomonidan aytib berilgan.
- C) Ba‘zi o‘rinlarda uchinchi shaxs nomidan, ba‘zi o‘rinlarda esa ikkinchi shaxs nomidan bayon etilgan.
- D) Voqealar xuddi chetdan kuzatayotgan begona nomidan bayon qilingan.

41. (Q – 4,5) “Shum bola” qissasiga tegishli ma‘lumotni aniqlang.

- A) Asar qahramoni onasining qattiq koyishidan ranjib, uyidan chiqib ketadi va pul topish ilinjida turli ishlarga qo‘l uradi.
- B) Asarda o‘yinqaroq bolaning, onasini ranjitib qo‘ygani, onaning esa farzandini himoya qilish maqsadida yolg‘on gapirishga majbur bo‘lgani haqida hikoya qilinadi.
- C) Asarda qissa qahramonining o‘zi bexos guvohi bo‘lib qolgan voqeani barchadan sir tutishi oqibatida bir begunohning qattiq jabr ko‘rishi hikoya qilingan.
- D) Asarda munis va mushfiq kelinoyisiga xushxabar yetkazaman deya o‘zi istamagan holda “aybdor” bo‘lib qolgan bolaning iztiroblari haqida hikoya qilingan.

42. (Q – 4,5) Kampir tong qorong‘isida xamir qilgani turib, ho‘kizidan xabar oldi. O!.. Ho‘kiz yo‘q, og‘il ko‘cha tomondan teshilgan... Dehqonning uyi kuysa kuysin, ho‘kizi yo‘qolmasin. Bir qop somon, o‘n-o‘n beshta xoda, bir arava qamish – uy, ho‘kiz topish uchun necha zamonlar **qozonni suvga tashlab qo‘yish** kerak bo‘ladi.

Ushbu badiiy parcha haqidagi to‘g‘ri fikrni aniqlang

- A) “O‘g‘ri” hikoyasidan keltirilgan ushbu parchadan ajratilgan so‘z “qora qozonni ishlatmay, ichiga suv to‘ldirib qo‘yish kerak” mazmunida.
- B) “Bemor” hikoyasidan keltirilgan ushbu parchadan ajratilgan so‘z “ma‘lum mablag‘ yig‘ilguncha yemay-ichmay, qozonni qaynatmay yashash kerak” mazmunida.
- C) “O‘g‘ri” hikoyasidan keltirilgan ushbu parchadan ajratilgan so‘z “ma‘lum mablag‘ yig‘ilguncha yemay-ichmay, qora qozonni qaynatmay yashash kerak” mazmunida.
- D) “O‘g‘ri” hikoyasidan keltirilgan ushbu parchadan ajratilgan so‘z “tuban kimsalar bilan bir qozonda qaynashni zamon ko‘taradi” mazmunida.

43. (Q – 4,5) “Bugun Ulug‘bekni operatsiyaga olib kirib ketishdi. Aksiga olib, Solijon akaga ruxsat tegdi. Solijon aka xonani bo‘shatdi-da, yosh do‘sti Ulug‘bekni kuta boshladi. Ishqilib, yarimjon bo‘lib qolmasin-da!..”

“Nima qilib qo‘yding, Sherzod?!” hikoyasidagi ushbu voqeadan oldin qanday voqea sodir bo‘lgan edi?

- A) Solijon aka tasodifan Ulug‘bekning jarohat olishiga sababchi bo‘lib qolgan edi.
- B) Sherzod cho‘zmasidan tosh otib Ulug‘bekning o‘ng ko‘ziga jarohat yetkazgan edi.
- C) Sherzodning Ulug‘bekka nisbatan g‘arazi borligi uchun uni jarohatlaydi.
- D) Sherzod do‘sti Ulug‘bekka yordam zarurligini bila turib, qochib ketadi.

44. (Q – 4,5) Muallif “Men har safar Munavvar kelinoyimni eslaganimda keyinchalik ro‘y bergan bu og‘ir voqea emas, dilimda sal ma‘yus va iliq hislar uyg‘ongan yoz kuni esimga tushadi” deya xotiriga olgan yoz kunida qanday voqea sodir bo‘lgan edi?

- A) O‘sha kuni tog‘asi urushga ketgandan keyin o‘zini qayoqqa urishni bilmay qolgan kelinoyisi dashtga, bug‘doy o‘rog‘iga chiqib ketgan edi.
- B) O‘sha kuni qishloq bog‘lari ustida ma‘yus kuylar, ayriliq hislariga to‘la hazin laparlar yangrab, tog‘asi va Munavvar kelinoyisining to‘y bazmi bo‘lib o‘tgan edi.
- C) O‘sha kuni tog‘asi bilan birga urushga ketgan hamqishloq yigit maktubi orqali tog‘asining jangda yarador bo‘lib, gospitalga tushgani haqidagi umidbaxsh xabarni olishadi.
- D)) O‘sha kuni pochtachi tog‘asining jangda halok bo‘lganligi haqidagi xabar yozilgan qoraxatni olib keladi.

45. (M – 5,5) Quyidagi fikrning “O‘g‘ri” hikoyasida keltirilish sababi to‘g‘ri ko‘rsatilgan javobni aniqlang.

“Odamlar dod ovozigga o‘rganib qolgan: birovni eri uradi, birovning uyi xatga tushadi... Ammo kampirning dodiga odam tez to‘plandi...”

- A) Ushbu xonadondagi gap-so‘zlar tashqariga chiqmaganligini muallif shu tarzda yetkazipti.
- B) Odamlarning tomoshatalabligini muallif shu fikrlar orqali yetkazib bergan.
- C) Davrning ijtimoiy va siyosiy jihatdan og‘irligini muallif shu fikrlari orqali yetkazib bergan.
- D) Qo‘shnilarning befarqligini muallif shu fikrlar orqali yetkazishga harakat qilgan.

